

371.671.1

T 57

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TILLAYEVA RAYXONA TUXTASINOVNA

**YUQORI SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna

Yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik
kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi.....3

Тиллаева Райхона Тухтасиновна

Технология формирования исследовательских компетенций учащихся
старших классов на уроках литературы.....23

Tillaeva Raykhona Tukhtasinovna

Technology of developing pupil's' research competence in high
school literature classes..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

371.671.1
T 57

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TILLAYEVA RAYXONA TUXTASINOVNA

**YUQORI SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TDPU
AXBOROT-RESURS
MARKAZI**

AP-5451

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3646 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kambarova Saodat Irkinovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Safarova Roxat Gaybillayevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Abduvalitov Ergash Buranevich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil "4" 04 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy, Tel.: (99871) 281-41-44; faks: (99871) 281-427-44; e-mail: www.tsuull.uz) e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (264-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy, Tel.: (99871) 281-41-44; faks: (99871) 281-427-44; e-mail: www.tsuull.uz) e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil "26" 06 kuni tarqatildi.

(2023-yil "26" 06 dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).

**Q.B. Yo'ldoshev**
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash
a'zosi, p.f.n., dotsent

S. Ashirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
bir martalik ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida turli fan sohalarini bo'yicha mustaqil izlanishlar olib borish, pedagog kadrlarning fasilitator, kouch, supervizor pozitsiyalarini egallashi, yoshlarning yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda belgilangan "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"¹ konsepsiyasida tadqiqotchilik faoliyatiga taraqqiyotning muhim belgisi sifatida qaralib, uning tashabbuskor, kreativ va yuqori intellektli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili ekanligi e'tirof etilmoqda. Bu esa o'quvchilarda insonga va atrof-olamga nisbatan ijodiy munosabatni shakllantirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoda o'quv-tarbiya jarayoni sifat-samaradorligini oshirishga qaratilgan optimal yondashuvlar yetakchi o'rinni egallamoqda. Muayyan o'quv materiallari doirasida muammoli vaziyatlar hosil qilish, real (hayotiy) masalalarga e'tibor qaratish, shaxs bilish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha turli xil refleksiya shakllaridan unumli foydalanish, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga stimullar berish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar adabiy ta'lim mazmunini o'quvchilarning yaratuvchanlik va bunyodkorlik g'oyalari bilan motivatsiya beruvchi muqobil, integrativ, empirik, kreativ va kognitiv yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy ishlarni olib borishda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning individual perspektivasini yaratish, o'z "men"ligi va ijodiy barkamolligini pozitiv kamol toptirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bu yoshlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga doir ergonomik shart-sharoitlarga ehtiyoj uyg'otmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishi"² zarur shart-sharoitlar yaratish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga doir ilmiy va ijodiy metodlarni adabiy ta'lim jarayoniga tatbiq etish, loyiha va tajribalarga jalb etish, izlanish faoliyatiga yangicha yondashish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"³gi PF-60-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"⁴gi PF-5712-son Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi

¹Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22-may, 2015-y. Incheon, Republic of Korea).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"³gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

to'g'risida"gi PQ-3271-son, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish masalasi, avvalo, pedagogik tafakkurni o'zgartirish, o'quvchilarning adabiy tahlil malakasini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy tafakkurni qaror toptirish, nutq o'stirish, ijodiy ishlarni yo'lga qo'yish, mumtoz asarlar matni ustida ishlash, badiiy namunalarni qiyosiy yo'sinda o'rganish, virtual laboratoriyalar tashkil etish, muammoli o'qitish aspektida Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, E.Abdualitov, A.Hamroyev, M.Hazratqulov, S.Kambarova, I.Rahimova kabi metodist; uzluksiz ta'limda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish B.Adizov, S.Nishonova, B.Rahimov, Sh.Sharipov, O'.Xudayberganova, N.Narziyeva, Sh.Boltayeva kabi pedagog va psixologlar tomonidan tahlilga tortilgan. Ta'lim oluvchilarda adabiy-nutqiy, kasbiy muloqot, kreativ, lingvistik, pragmatik, axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish va farqlab o'rgatish masalasi G.Asilova, T.T.Kaziyeva, M.A.Kenjayeve, N.Sh.Ruzikulova, Y.Umarova, M.F.Fozilova, O.B.Qurbonova kabi metodistlarning tadqiqot ishlarida maxsus o'rganilgan.

Ta'lim oluvchilarning tadqiqotchilik faoliyati, kompetensiya, kompetentlilik tushunchalari, ularning turlari va strukturasi MDH olimlari: S.V.Abramova, M.V.Boguslavskiy, I.P.Volkov, L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, V.V.Davidov, L.A.Darinskaya, Y.P.Ilin, M.G.Kachurin, Y.V.Lebedev, I.Y.Lerner, S.I.Osipova, V.V.Pazinin, L.M.Perminova, K.B.Petrov, Y.A.Ponomorev, Y.V.Rindina, A.E.Simanovski, I.L.Starsevalar tomonidan o'rganilgan. Ta'lim oluvchilarning tadqiqot ishlarini tashkil etish, loyiha ishlarini yo'lga qo'yish kognitiv o'quv faoliyatini shakllantirish muammosi bilan bog'liqlikda amalga oshirilishi A.I.Balasheva, N.I.Derekleva, K.N.Polivanova, A.V.Mironov, A.S.Oboxov, A.I.Savenkov, I.S.Sergeyeva kabi olimlarning izlanishlarida o'z aksini topgan.

Xorijlik E.Bono, G.Gardner, Dj.Dyui, M.Daniels, J.Piaje, J.Rodari, Dj.Raven, E.Torrens, Dj.Gilford, K.Rodgers, D.Patti kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ijodkor shaxsni tarbiyalash nazariyasi, kreativlik va ijodiy potentsiallar, atrof-olamni bilishda tayaniladigan obyektiv qonuniyatlarning o'quv muammolarini qiziqarli

tarzda shakllantirishga ta'siri, ijodiy topshiriqlarga asoslanilgan ta'limning pedagogik-psixologik mazmuni yoritilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "O'zbek tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy metodikasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning didaktik tamoyillari va shart-sharoitlarini belgilash;

yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish;

yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi maktablarning 861 nafar 10–11-sinf o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish, ilmiy xulosalarga kelishda nazariy-mantiqiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba o'tkazish, kuzatish, suhbat, so'rovnomalar tarqatish, solishtirish, matematik-statistik tahlil singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni izlanish, konstruksiyalash, texnologiyalashtirish, loyihalash, muvaffaqiyat daqiqalari, refleksiya, motivatsiya kabi pedagogik-psixologik xususiyatlarni aniqlashtirish hamda jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi internal va eksternal omillarni belgilash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarni tadqiqot faoliyatiga rag'batlantiruvchi adaptiv, lokal-modellashirilgan, intensiv, ergonomik kabi didaktik shart-sharoitlar, ilmiylik, assotsiativlik, fundamental, amaliy tamoyillar o'quv va ilmiy tadqiqot tushunchalari o'rtasidagi subyektiv, obyektiv muammolarga yechim topish bilan bog'liq farqni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish modeli izlanuvchanlikka xos ta'kidiy, mantiqiy, umumlashtiruvchi texnologiyalarning shaxsiy, tizimli, kognitiv, kommunikativ komponentlari

tarkibiga pozitivlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, faollik kabi yaratuvchanlik elementlarini kiritish asosida ishlab chiqilgan;

adabiyot darslarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini oshirishga qaratilgan loyiha texnologiyasi, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, Gardner nazariyasi, adabiy loyiha, uchlik kundaliklarni g'oyalarni topish, tasodifiy ta'sir, almashtirish, ijodiy pauza, mental buzilish kabi lateral metodlar bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga doir "Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi" nomli monografiya yaratilgan;

umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga doir "O'quvchilar adabiy-ilmiy tadqiqot jamiyati" faoliyati yo'lga qo'yilgan;

o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha o'quvchilar ilmiy tadqiqot jamiyati rahbari faoliyatiga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan interaktiv dars ishlanmalari yaratishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'spirin yoshdagi yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi takomillashtirilgani, mustaqil izlanishlarni tashkil etishga doir o'quvchilarning adabiy-ilmiy jamiyati tuzilgani, tadqiqotchilik faoliyatiga doir dastur, majmualar tuzish hamda adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashga doir yetakchi g'oyalar belgilangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalar, tavsiyalar umumta'lim maktablari yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish amaliyotida, xususan, "O'zbek adabiyoti" darsliklari, adabiyot o'qitish metodikasiga oid qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza matnlari tuzishda muhim manba bo'la oladi. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari tinglovchilari uchun adabiy ta'lim mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni izlanish, konstruksiyalash, texnologiyalashtirish, loyihalash, muvaffaqiyat daqiqalari, refleksiya, motivatsiya kabi pedagogik-psixologik

xususiyatlarni aniqlashtirish hamda jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi internal va eksternal omillarni belgilash hamda yuqori sinf o'quvchilarida izlanuvchanlikka xos ta'kidiy, mantiqiy, umumlashtiruvchi texnologiyalarning shaxsiy, tizimli, kognitiv, kommunikativ komponentlari tarkibiga pozitivlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, faollik kabi yaratuvchanlik elementlarini kiritish asosida ishlab chiqilgan tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish modeli Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2019–2022-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 25-oktabrdagi №04/1-2960-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi motivatsion, refleksiv, kreativ va evristik ta'lim metodlari asosida takomillashtirilgan;

adabiyot darslarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini oshirishga qaratilgan loyiha texnologiyasi, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, Gardner nazariyasi, adabiy loyiha, uchlik kundaliklarni g'oyalarni topish, tasodifiy ta'sir, almashtirish, ijodiy pauza, mental buzilish kabi lateral metodlar bilan integratsiyalash asosidagi yondashuvlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2019–2022-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli “O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 25-oktabrdagi №04/1-2961-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik ta'minoti zamonaviy yondashuvlar asosida boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 7 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilgan darajasi yoritilgan, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan,

ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning joriy qilinishi, aprobsatsiyasi, olingan natijalarning e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan; tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagogik muammo sifatida o'rganilgan; mavzuning zarurati mutafakkir ajdodlarimiz pedagogik ta'limotiga bog'liq holda tahlilga tortilgan, o'quvchilarning bilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar borasidagi qarashlari bayon etilgan.

Donishmand Suqrotning yangi bilimlar faqat ilm-hunar va jiddiy mehnat natijasida egallanishiga oid; Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilish metodlari, tajribalar o'tkazish, ma'lumotlar to'plash, ular asosida umumlashmalar qilish, haqiqatni aniqlash maqsadida muammoni tanqidiy o'rganish va taqqoslash; Abu Nasr Forobiyning baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlar rivojlanishi o'z-o'zicha bo'lavermasligi, balki bu masalada muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'ilishini qayd etishiga munosabat bildirilgan. Yangi bilimlarni tadqiq qilishga doir ijod jarayoni bir-birini taqozo etuvchi “texnologik zanjir”: ehtiyoj, maqsad, faoliyat va natijaga asoslanishi, bunda ehtiyoj faollikka turtki berishi, motiv anglangan ehtiyoj sifatida faollikni ma'lum tartibga solishi, shuningdek, maqsad avvaldan rejalashtirilgan natija ekanligi o'z ifodasini topgan.

O'smir yoshdagi o'quvchilarni tadqiqotchilikka yo'naltirishda dastlab aynan tanlangan faoliyat turiga qiziqtirish muhim omil sanaladi. Chunki maqsadning amalga oshirilishi qiziqish uyg'otishning ichki va tashqi ta'sirlari bilan bog'liq. Aynan o'spirin yoshdagi o'quvchilarning bilishga doir qiziqishlariga motivatsiya berish ularning maksimal darajada faollik ko'rsatishlari va aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladigan ijodiy fikr laboratoriyasiga olib kiradi. Bilish faoliyati orqali o'quvchi bilimlarni o'zlashtiradi, moddiy olamning o'ziga xosliklarini anglay boshlaydi, o'z xatti-harakatlariga ishonch hissini uyg'otadi. Shaxsni xatti-harakatlarga undaydigan psixik hodisa esa motivdir. Motiv tushunchasi zamirida shaxsning ideallari va qiziqishlari, ijtimoiy ustanovkalari va ehtiyojlari turadi. O'qituvchi tomonidan maxsus konstruksiyalanadigan ta'limiy muammolar, albatta, yechim topishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, fan asoslarini o'zlashtirishni, bilishga nisbatan ehtiyojni chaqiradi, fikrlashga yo'nalish beradi. Muammoga oid verbal va vizual materiallarni o'rganish o'quvchilarda yetarlicha motivatsiyani hosil qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish muayyan fakt va hodisalarni taqqoslash uchun topshiriqlar ishlab chiqish; umumiydan xususiy elementlarni tanlash va aksincha, alohida xususiyatlar asosida umumiy tanlash, kuzatish, tahlil qilish, eslatish; bir martalik hisobotlar, xabarlar, tezislar tayyorlashga o'rgatish; adabiyotlar ro'yxatini tanlash va tuzish yo'llarini ko'rsatish; so'rovnoma, jadval tuzish, statistik usullardan foydalanish; tadqiqot mavzularini ishlab chiqishda yordam berish, konsalting yordamini ko'rsatish; ijodiy xarakterdagi ishlar (insho, esse, taqriz, annotatsiya, sharh va boshq.) mavzusini

ochib berish ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma va og'zaki xabarlarini mantiqiy qurish, notiqlik ko'nikmalarini egallash, maxsus atamalardan foydalanish shular jumlasidandir.

Fanda bilimlarni o'rganishning reproduktiv, adaptiv, lokal-modellashtirilgan, tizimli va o'qituvchining kreativligiga asoslangan darajalari ma'lum. Aynan o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq pedagogik ijod bosqichi maxsus o'rganilgan bo'lib, bu bosqichning didaktik ijod, texnologik ijod, tashkilotchilik ijodi kabi turlari farqlanadi. O'quvchilarni tadqiqotchilikka yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga mustaqil ijodiy yechimni talab qiladigan kognitiv va amaliy vazifalarni qo'yishni taqozo etadi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilarning izlanishli kognitiv faoliyatini tashkil etish ko'zda tutiladi. O'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati o'quvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirish hamda tadqiqotchilik tafakkur turini rivojlantirishga qaratilishi nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Tadqiqot davomida o'quv tadqiqoti va ilmiy tadqiqot kabi tushunchalar atrofida amalga oshiriladigan faoliyat turlari quyidagicha guruhlashtirildi:

1. Dars jarayonida yechimi izlanadigan muammo va aniqlanadigan ilmiy haqiqat yangilik sanalmasa ham ta'lim oluvchilar bu holda o'zlarini yangi bilimlarning kash etuvchilari sifatida ko'rishlari muhim. Bu o'quv tadqiqotiga xos xususiyatdir. Adabiy asar mavzusi, g'oyasi, sujeti va uning qismlari, kompozitsiyasi va kompozitsion vositalari, tili, shungdek, badiiylik bilan bog'liq adabiy-nazariy tushunchalar, ularning qo'llanilish bo'yicha o'zlashtiriladigan bilimlarni bunga misol qilish mumkin. Ular matn ustida ishlash, o'quv tahlili (izchil tahlil, tekstual tahlil, obrazlar tizimi bo'yicha tahlil, muammoli tahlil), insholar, ijodiy matnlar, tadqimotlar yaratish kabi shakllarda amalga oshiriladi va ko'pincha qisqa muddatga mo'ljallanadi. O'quv tadqiqotida faqat o'quvchilarning mustaqil ishtirokiga tayanilmaydi, balki o'qituvchining ko'rsatmalari asosiy kuch sanaladi. Shunday bo'lsa ham ish yakunida o'quvchilar izlanishlari maqsadiga o'z harakatlari orqali erishganliklarini his qilishlari zarur.

2. O'quvchilarning ilmiy tadqiqotida bilimlarni izlash algortimi nisbatan o'zgaradi. Bunda izlanish va tadqiqotchilik jarayoniga o'quv jarayonining umumiy bosqichlarining izchilligi ham qo'shiladi. Uning ketma-ketligi muammo atrofida hal qilinadigan masalalarga yondashuv orqali belgilanadi: o'rganilayotgan asar (yozuvchi ijodi) doirasida muammo qo'yish va unga turli rakurslardan munosabat bildirish; muammoni yechish yo'llarini izlash (asari yuzasidan qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, yozuvchi ijodini tadqiq etish); g'oyalarni ilgari surish, masalaga tanqidiy yondashish, baholash (izlanish, shaxsiy nuqtayi nazarlarini shakllantirish); aniqlangan ma'lumotlardan eng muhimlarini olish, maksimal darajada yangi bilimlarni izlash; o'rganilganlarni umumlashtirish, yechimlarni taklif qilish, natijalar bilan tanishtirish, tahlil qilish.

Kompetensiya bilim, ko'nikma va malaka tushunchalariga nisbatan ancha kengroq tushuncha sanalib, ularning barchasini qamrab oladi. Shu bois unga turli faoliyat natijasi sifatida qarash mumkin. Uning natijasi ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy yo'nalishlar tarzida ham namoyon bo'ladi. Bizningcha, kompetensiya shaxsning kutilmagan nostandart vaziyatlarda, faoliyatning turli sohalarida bilim va mavjud tajribalarga asoslanishi, o'rganganlariga mos holda muammolar va tipik

vazifalarni hal qilish qobiliyatini belgilaydigan xususiyati sanaladi. Tadqiqot ishimiz muammosi doirasida “tadqiqotchilik kompetensiyasi” tushunchasini aniqlashtirish zarurati tug‘ildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif berildi:

Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu o‘quvchilarning tadqiqot faoliyati davomida shakllantirilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalari yo‘nalishlari mazmuni, qiymati, xulq-atvori me‘yorlari majmuyidir. Bunda o‘quv jarayonlari xususiyatlariga ko‘ra muayyan vaqt mobaynida (qisqa yoki uzoq muddatli) tadqiq etilayotgan obyekt doirasida tanqidiy fikrlash, g‘oyalarni ilgari surish, muammolarni aniqlashtirish, turli xil bilim manbalari bilan mustaqil ishlash, kuzatish, tadqiq etish, yechimlarni taklif qilish asosida noma’lum bo‘lgan yangi bilimlarni izlab topish va o‘zlashtirish algortimi tushuniladi.

Umumta’lim maktablarida kichik ilmiy-tadqiqot ishlariga poydevor qo‘yish uchun: o‘quvchilarning ehtiyoj, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish; kognitiv jarayonlari doirasida ilmiy va ijodiy faoliyatiga motivatsiya berish; tadqiqot usullari, ilmiy atamalar va ma’lumot manbalari, mavzuga doir didaktik materiallar bilan ishlash nazariyasi bilan tanishish; tadqiqot natijalarini loyihalash, taqdim etish, himoya qilish, muhokama o‘tkazish kabi faoliyat turlariga asoslaniladi.

Yaqin kunlarga tadqiqotchilik malakasi, asosan, fanning turli sohalarida, oliy ta’lim muassasalarida yoki ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat olib boradigan tor doiradagi mutaxassislar uchun zarur, degan qarashlar mavjud edi. Ammo hozirgi kunda jamiyat a’zolari tafakkuridagi yangilanishlar, iqtisodiyotning bozor talablariga asoslanishi bu qarashlarga ma’lum darajada o‘zgartirishlar yasadi.

Bobning ikkinchi faslida adabiyot o‘quv dasturlari va darsliklari mazmuni tahlilga tortilgan bo‘lib, ularda, asosan, adabiy-nazariy tushunchalar, yozuvchi mahorati, uslubi, ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, asarlarining badiiy-falsafiy talqini yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga e’tibor qilingani holda ijodiy qobiliyatlar rivojiga qaratilgan tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish masalasi deyarli ochiq qolgani ma’lum bo‘ldi. Shundan kelib chiqib ta’lim faoliyatiga integratsiya hamda darsdan tashqari shakldagi ishlarni tashkil etish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchilik kompetensiyasiga asoslangan yondashuv adabiy ta’lim paradigmasining o‘zgarishiga olib keladi. Bunda egallangan bilimlardan o‘quvchilarning turli xil hayotiy vaziyatlarda foydalanish qobiliyati rivojlanib boradi. Tadqiqotchilik kompetensiyasiga asoslangan ta’limning natijasi: a) o‘quv faoliyati tadqiqot va amaliyotga yo‘naltirilgan xususiyat kasb etishi; b) o‘zi assimilyatsiya predmetiga aylanishida namoyon bo‘ladi.

Fikrimizcha, yuqori sinf o‘quvchilari yosh, mavjud hayotiy tajribalari asosida o‘zlari uchun yangi deb bilgan narsa-hodisalarni dastlab ularning mohiyatini tushunish va o‘zlashtirish, shaxsiy qarashlarini bayon etish, aniq to‘xtamga kelish, bir-biriga yordamlashish, qiziqishlarini ifoda etishni o‘rganish uchun ham ilmiy loyihalar va ijodiy faoliyatga jalb qilinishi zarur.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish uchun yozuvchining tarjimai holi, ijodi bo‘yicha xabarlar tayyorlash, darslikdagi yoki o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan, shuningdek, mustaqil topilgan qo‘shimcha manbalar (suhbat

darslari, fikrlash darslari, insho yozish, sinxronlash, she'rлар) bilan ishlash uchun ma'lumotlar qidirish darslari, ertaklar, tugallanmagan parchalarni davom ettirish ishlari tashkil etiladi. Zamonaviy ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangani bois o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish tadqiqot faoliyati natijasi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur fasl mazmunida o'quv tadqiqoti va ilmiy tadqiqot tushunchalari ma'nosidagi farqqa aniqlik kiritilgan bo'lib, ilmiy tadqiqotda obyektiv muammoning yechimiga javob izlansa, o'quv tadqiqotining maqsadi o'quvchi uchun zarur bo'lgan subyektiv muammoga qaratilishi bayon etilgan.

Tadqiqot faoliyatining predmeti yangi bilimlarni egallashdir. Faoliyatning maqsadi – adabiy ta'lim sohasida yangi ilmiy bilimlarni kashf etish. Yangi bilimlar filologik, adabiy tanqid, lingvistika bo'yicha badiiy yoki informatsion matnlarni o'zlashtirish bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: obyektni kuzatish; turli vaziyatlarda uning xatti-harakatlari yoki xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazish; obyekt modelini yaratish, ya'ni uni soddalashtirilgan shaklda ifodalash tavsifi (matn – she'r, hikoya – etyud); nazariyani yaratish, ya'ni modelning miqdoriy tavsifi; nazariyani tekshirish: tajribalar o'tkazish, nazariya va eksperimental natijalarni miqdoriy taqqoslash. Tadqiqotchilik o'zaro bog'liq kompetensiyalar: universal xususiyatlar, o'quv yoki ilmiy tadqiqot sohasidagi bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlar, xatti-harakatlar hamda tajribalarni o'zida mujassam etgan, masalaga oid muammolarni hal qilish yig'indisi demakdir.

Dissertatsiyaning **“Adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi o'z ichiga tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali bo'lgan yondashuvlar hamda muammoli o'qitish va lateral metodlardan foydalanish usullariga bag'ishlangan.

O'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish bir qator ish usullarini tizimlashtirishni talab etadi. Bular: muammoli ta'lim, tadqiqot metodi, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, tadqiqot topshiriqlari va adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llay olish bilan bog'liq muammolarni hal qilish kabilardir. Qayd etilganlar adabiy materiallar ustida ishlash barobarida global tarmoq imkoniyatlari: ma'lumotlarni izlash, ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi forum hamda seminarlarda muloqot qilishni ham ko'zda tutadi.

Tadqiqotchilik faoliyati natijasi sifatida yuzaga keladigan yangiliklar algoritmini quyidagicha tartibda shakllantirish maqsadga muvofiq: kashfiyot – ixtiro, ixtiro – loyiha, loyiha – texnologiya va h.k. Mazkur ketma-ketlik avvaldan belgilangan tayyor reja emas, balki maqsadga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu tizim analitik-sintetik fikrlash orqali amalga oshadi. Analitik-sintetik qobiliyat bu ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, narsa-predmet, hodisalarning asosiy va muhim jihatlarini ajratib ko'rsatish yoki tavsiflash demakdir. O'quvchilar axborotlarni ko'p hollarda manbalar, texnik vositalar va bibliografik qidiruv ko'nikmalarini egallash orqali oladilar. Umumta'lim tizimida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari

va mavjud tajribalari hisobga olinib, quyidagi faoliyat turlari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- 1) o'rganilayotgan fan (mavzu) doirasidagi bilimlar asosida taxminlarni shakllantirish va asoslash;
- 2) muammolarni ko'rish va ularni hal qilish;
- 3) maqsadni belgilash va faoliyatni rejalashtirish;
- 4) zarur ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va saralash;
- 5) tanlangan eng maqbul usullar orqali esperiment o'tkazish, tadqiqot natijalarini taqdim etish, aniqlangan ma'lumotlar va qo'yilgan muammo o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish;
- 6) olingan natijalarini tizimlashtirish, bu bilim va ko'nikmalarni muayyan faoliyatda qo'llash va h.k.

Tadqiqotimiz amaliyotida ta'lim texnologiyasi sifatida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga doir ma'lum yondashuvlar ishlab chiqildi. Bular quyidagilardan iborat:


1. *Ta'lim jarayonining muhim bosqichlariga doir.* Bunda o'quvchilar darslarni alohida o'quv jarayoni sifatida ko'rishni o'rganishlari kerak. Zero, o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish mezonlari ularning kelgusidagi faoliyati uchun maqsad va vazifalarni, tadqiqot ishi mavzusini belgilash, o'quv materialini o'rganish, tahlil qilish va tizimlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun o'quvchilarni biror mavzuda amalga oshirmoqchi bo'lgan izlanish metodologiyasini o'rganish, natijasini taxmin qilish, xulosalar chiqarish va o'z faoliyatini baholab borishga yo'naltirish samaradorlikni ta'minlaydi.

2. *Kelgusidagi hayotni ilm-fan bilan bog'lashga doir.* Bugungi kunda ta'lim beruvchilarning uslubiy arsenalida o'rganishga jalb qiladigan ko'plab qiziqarli va mushohadatalab yondashuvlar mavjud. Bular: muammoli ta'lim, keys-stadi, dizayn, axborot-kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash texnologiyasi kabilardir. Ularning barchasi o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni yaratishga imkon beradi. Shu asosda o'quvchilarning taxmin qilishi, kreativligi, mustaqilligi, aqliy qobiliyati va ilmiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Adabiyot darslarida badiiy asar matniga asoslanilgan yondashuv ham yodda tutilishi zarur. Binobarin, bunday yondashuv o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga hissa qo'shadigan loyiha texnologiyasiga asoslangan.

Loyiha metodi (juftlik, guruh loyihalari), muammolilik, muhokama, trening, o'yin, portfolio kabilar tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy usullariga kiradi. Ammo tadqiqot faoliyatining kundalik o'quv vazifalariga kiritilishi o'qituvchilar uchun muayyan qiyinchiliklarni paydo qiladiki, bu maxsus dasturlar yaratishni taqozo etadi. Turli adabiyotlarning ko'pligi, internet imkoniyatlari yoki o'quv resurslari mavjudligiga qaramay maktab o'quvchilari loyiha faoliyatini tashkil etishning metodik asoslari yetarli emas.

Yuqoridagilardan ayonlashadiki, o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish borasidagi maqsadga erishishning yagona yo'li bu – ularga harakatlanish, kashf qilishga yo'naltirish orqali bilim olish zavqini his etishni o'rgatishdir. Buni quyidagi modelda ko'rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish modeli

O'quvchilar tomonidan o'quv tadqiqotlari yoki uning elementlarini amalga oshirishni o'z ichiga olgan xilma-xil mashg'ulot turlari mavjud: dars-tadqiqot, dars-ijodiy hisobot, dars loyihalarini himoya qilish, dars-ochiq fikrlar, dars-rolli o'yin, dars-seminar, davra suhbat, bahs-munozara va boshqalar. Tadqiqotchilik kompetensiyalari rivojiga doir bir qator noan'anaviy darslar boshqa darslarga nisbatan ko'lamdorligi hamda natijaga asoslanishi nuqtayi nazaridan ham ularni o'tkazish muayyan tayyorgarlikni talab etishi ushbu bob mazmuniga singdirilgan. Masalan:

An'anaviy bo'lmagan shakllar. Bularga adabiy o'lkashunoslik, virtual sayohatlar, aniq belgilangan ta'lim maqsadlari asosidagi tadbirlar va ularning dasturini tuzish kabi ishlarni kiritish mumkin.

Fanni chuqur o'rganishga qaratilgan fakultativlar yoki tanlov kurslari. Adabiyotdan tashkil etiladigan yuqoridagi kabi ta'lim shakllari o'quvchilar tadqiqot jamiyati tuzishni va ularga qiziquvchilarni jalb etishni nazarda tutadi. O'quvchilarning adabiy-ilmiy tadqiqot jamiyati (O'AITJ) – bu ilmiy tadqiqot ishlari, ish natijalarini jamoaviy muhokamaga qo'yish, shu asosda davra suhbatlari, bahs-munozaralar, intellektual shoular, ommaviy himoyalar, konferensiyalarni birlashtiradigan sinfdan tashqari ish shakllaridir.

Shaxsiy maslahatlashuv darslari. Mazkur faoliyat turining muvaffaqiyati, asosan, uning aniq tashkil etilishiga bog'liq. Shu bois o'qituvchi va o'quvchining ijodiy g'oyalarni amalga oshirish jarayoni texnologik zanjir sifatida aks etishi mumkin. Ya'ni uning har bir elementi aniq muammolarni hal qilishga mo'ljallanadi.

Tadqiqot davomida dars va sinfdan tashqari ishlar jarayonida matn yozish va tahrirlash, illyustratsiyalar yaratish, fotosuratlar tayyorlash, jurnalistik janrlarni o'zlashtirish: insho, intervyu, blits-so'rov, anketalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. O'quvchilar tadqiqot faoliyatining natijasi ta'limiy "mahsulot", ya'ni hisobot, referat, loyiha va modellarni yaratish bilan yakunlandi. Bularning barchasi o'quvchiga fikrini ijodiy ifodalash, o'z ishini dars jarayonidan tashqarida ham, xususan, turli tanlovlar, festival, seminar, konferensiyalarda ham taqdim etish imkonini berdi. Ta'kidlangani kabi tadbirlarda ishtirok etish o'quvchilarning ijtimoiylashuviga, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga, yuqori sinflarda ta'lim profilini aniqlash va buning natijasida kasbni to'g'ri tanlashga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga imkon beruvchi samarali vositalardan navbatdagilari bu guruhlar ishini tashkil etishdir. Bunda o'quvchilarni "Tarixchilar – tadqiqotchilar", "Geograflar – tadqiqotchilar", "Ijodkorlar", "Korrektorlar" guruhlarini shakllantirilib, maqola, tezis, referat, ma'ruza matnlari va insho kabi ijodiy ishlarni tayyorlashda o'z fikrini asoslash; tinglovchilarni nufuzli muallif fikri bilan tanishtirish; o'z fikrini aniqroq ifodalash hamda badiiy matn orqali asar tilining o'ziga xosligini ko'rsatishda yordam beradi.

Ikkinchi bobning navbatdagi faslida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga doir hissiy rag'batlantirish usullaridan bo'lgan kafolatlangan muvaffaqiyatli vaziyat xususida so'z yuritilgan. Bunda o'quvchilar bilimidagi muammoli sohani aniqlashtirish; bo'shliq mavjud bo'lgan mavzuga oid nazariy va amaliy topshiriqlar berish; belgilangan vaqt mobaynida o'quvchilarning mavzu asosidagi topshiriqlar bo'yicha mustaqil izlanishi va vazifani bajarishlarini yo'lga qo'yish; hamkorlikda mavzuga oid xato va izohtalab fikrlarni tanlash; taqdimot shaklini belgilash va chiqishlarni uyushtirish; o'quvchining bir daqiqadagi faoliyatini tashkil etish; tengdoshlari baholari va e'tiroflari kabi ish turlari o'quvchilarning izlanish faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilishi, o'ziga ishonchi va mas'uliyat hissini oshirish asoslangan.

Bobda “Bir mavzu – ko‘p sujetlar” deb nomlangan yondashuv orqali o‘quvchilarga bir xil mavzuda ko‘proq hikoyalar o‘ylab topish va sujetidagi muhim nuqtalarni chizish vazifalarining samaradorligi aks etgan. Jumladan, muayyan asar muallifi bo‘lib qolish, rassom sifatida personajlarning asar yakunidagi holatini yoki o‘zaro ziddiyatlar aks etgan epizodlarni gavalantirishlari ham mumkin.

Nemis pedagogi Edvard de Bono nomi bilan bog‘liq lateral fikrlash nazariyasi ta‘lim jarayoniga ijodiy yondashuv sanalib, o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ingliz tilidan olingan mazkur so‘z – “Lateral flow test” o‘zbekchaga tarjima qilinganida “Yanal oqim testi” ma‘nosini anglatadi. Lateral metod – bu “nostandart fikrlash”, “gorizontal fikrlash”, nuqtayi nazarning o‘zgarishi va g‘oyalarni takomillashtirish jihatidan ustuvor bo‘lib, vertikal fikrlashni kengaytirishga qaratilgan muhim to‘ldiruvchi. Mazkur tushunchaning sinonimi sifatida “Nostandart fikrlash”, “Shlyapalar metodi”, “Almashtirish metodi”, “Tasodifiy ta‘sir” hamda “Ijodiy pauza” kabi metodlarni ko‘rsatish mumkin. Bunda mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan biror fikr ilgari surilib, o‘quvchilardan uni davom ettirishlari taklif etiladi. G‘ayrioddiy fikrlardan yangi g‘oyalarga o‘tishda mantiqsizdek tuyulgan fikrlardan o‘rinli yechimlarga ham kelish mumkinligi bilan xarakterlidir.

